

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

O‘ZBEK, QORAQALPOQ XALQ MAQOLLARIDA ANTONIMIK MUNOSABATLAR

Matjanov Sherali Ataxanovich

Ajiniyoz nomidagi NDPI O‘zbek tili

kafedrasi assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tilidagi xalq maqollarida qarama-qarshi ma’noli so‘zlardan unumli foydalanish hamda antonimik xususiyatga ega bo‘lgan maqollarining tahlili ifodalaniib beriladi.

Kalit so‘zlar: Maqol, xalq, odob-axloq, urf-odat, qarama-qarshilik, yaxshi-yomon, achchiq-chuchuk, uzoq-yaqin, g‘oya.

Tilshunoslikda maqollarni o‘rganish nafaqat shu tilning xalq o‘g‘zaki ijodini o‘rganish, ma’lum bir xalqning milliy-mentalitetini tushunishga imkon bermoqda, balki xalqning muloqot an’analarini tarixiga chuqur kirib borish, zamonaviy muloqot an’analarini, olamning lisoniy manzarasi hamda olamning folklor modelini bog‘laydigan chuqur ildizlarni ko‘rib chiqish imkoniyatini ham beradi. Maqollar millatning hayoti, odob-axloqi va urf-odatlarini to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olam modeli bilan birlashtirib, tilning eng qadimiy g‘oyalari hamda qoidalarini aks ettiradi.

Har qanday maqol – bu avlodlar tajribasini umumlashtiradigan va xalqning urf-odatlarini hamda an’analariga oydinlik kiritadigan fikrning mantiqiy shakli sifatida baholanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab maqollar turli xil tillarda o‘xshash yoki bir-biriga yaqin ma’nolarni ifodalaydi, xususan, turli xil til guruhlarining maqol fondida u yoki bu shaklda do‘stlarga yordam berish, qariyalarni hurmat qilish, qarindoshlarini qo‘llab-quvvatlash va oila yaxlitligini saqlash zarurligi to‘g‘risida, shuningdek, mehnatning afzalliklari, yaxshilik va yomonlik, yolg‘onning zarari, murakkab muammolarni birgalikdagi sa’y-harakatlar bilan hal qilish zarurligi va boshqalar haqida so‘z yuritiladi.

Bilamizki tarixda ota bobolarimiz va hozirgi kunda ham insonlar o‘z fikrini maqollar, turli idiomalar bilan ifodalab berishga harakat qilishgan hamda qilib kelmoqda. Ularning maqollarni qanchalik o‘rinli foydalanishiga qarab bilim darajasi, qay darajada iqtidorli ekanligi aqliy salohiyati belgilangan. Ko‘rinib turibdiki maqollardan qay darajada nutqda foydalana olishga qarab odamlarning huquqiy maqomiga baho berilgan. Buni tilimizdagi eng katta yutuqlaridan biri desak xato bo‘lmaydi. Xalq maqollarini qo‘llashda biz ko‘pincha antonim vositalardan, g‘oyalarning ziddiyatlar o‘rtasida kurashuvidan bahs-munozaralar o‘rtasida qarama-qarshi ma’noli so‘zlardan unumli foydalanamiz. Kundalik turmushda biz ifodalab beradigan hissiyotlarimiz qarama-qarshilikdan iborat. Fikrimizni boy, ma’noli qilib yetkazib berishda bu mezondan foydalanishimiz, nutqimizning naqadar boy

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ekanligini, shuningdek undagi jozibadorlikni oshirishda juda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotlar natijasiga qaraydigan bo‘lsak, har bir narsa yaratilishidan oldin uning qarama-qarshi tomonlari ham ko‘rib chiqiladi.

Jaloliddin Rumi aytganidek: «Har qanday «ashyo»ning qimmatini zidi bilan ayon bo‘ladi, zidi bo‘lmagan narsani ta’rif etish imkoniyatdan tashqaridadir. Tangri nurning oshkor bo‘lishi uchun qorong‘u etib yaratilgan mana bu olamni mavjud ayladi – deydi. Mana shunday ziddiyat, qarama-qarshilik tushunchasi maqollarning leksik-semantik asosida ham uchraydi. Bunday maqollar orqali berilgan ibratomuz fikr kishiga kuchliroq ta’sir qiladi. Uni o‘yga toldiradi, fikrlashga majbur qiladi.

Gegel shunday degan: “Qarama-qarshilik–haqiqat mezoni, Qarama-qarshilikning yo‘qligi esa xatolar mezoni”. Bunday fikrlar orqali Gegel falsafada qarama-qarshilikning g‘oyat muhim hodisa ekanligini isbotlagan. Qarama-qarshilikning tildagi ahamiyati ayniqsa o‘zbek va qoraqalpoq tilidagi xalq maqollarida yaqqol seziladi.

Masalan:

Jaqsı menen joldas bolsañ halwa sheker,
Jaman menen joldas bolsañ abıroyıñ tóger.
Yomon bilan yurdim, qoldim uyatga,
Yaxshi bilan yurdim, yetdim niyatga.

Har ikki tildagi bu maqollarning ma’no jihati deyarli bir xil hamda ulardagi **yaxshi-yomon** so‘zlari o‘zaro ma’noviy antonimlikni yuzaga chiqaryapti va qarama-qarshilik orqali maqol mazmuni yanada ta’sirliroq ifodalanyapti. Bundan tashqari sifatlar yordamida odamga baho berilayapti. Yaxshi-yomon so‘zlarini talqin qilganimizda “yaxshi odam” “yomon odam” ma’nosini anglatganini va bu tushunchalar qarama-qarshilik hosil qilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Hayotga nazar tashlar ekanmiz dunyoning yaxshilik va yomonlik mezonlari ostiga qurilganligini tushunib yetamiz. Shu boisdan ham o‘zbek va qoraqalpoq xalq maqollarida **yaxshi va yomon** kabi qarama-qarshi ma’noli mazmunidagi so‘zlarni, misollarni juda ko‘p uchratishimiz mumkin.

Shunday maqollarga yana bir misol:

Jaqsı perzent – súyinish,
Jaman perzent – kúyinish.
Yaxshi bola — suyuk,
Yomon bola — kuyuk.

Xalq maqollarida antonim so‘zlar asosan sifat, ravish va fe‘l so‘z turkumlarida ko‘p uchraydi. Yuqoridagi maqollarda ham antonim so‘zlar misolida **yaxshi va yomon** so‘zlari qo‘llanilgan. Yaxshi va yomon so‘zlari asli sifat so‘z turkumiga

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tegishli bo‘lib, maqolda antonim juftlikni hosil qilib, odam farzandining xarakteri bilan bog‘lanib katta bir ma‘noni yoritib bergan.

Maqol-hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan, ixcham obrazli, tugal ma‘noli va hikmatli ibora yoki gapdir. Qarama-qarshi ma‘noli maqollar ko‘pincha qo‘shma gap ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Ashshı menen dushshını tatqan bileđi,

Alıs penen jaqındı jortqan bileđi.

Achchiq bilan chuchukni totgan bilar,

Uzoq bilan yaqinni — yurgan.

Xalq maqollarida biror bir narsaga bo‘lgan fikrini ifodalashda uning antonimik xususiyatini oshirishga harakat qilinadi bu esa asosiy nazarda tutilgan g‘oyani ochib berishga xizmat qiladi.

Bu maqoldagi *achchiq-chuchuk*, *uzoq-yaqin* so‘zlari o‘zaro ma‘noviy antonimlikni yuzaga chiqargan va qarama-qarshilik orqali maqol mazmuni yanada ta’sirliroq ifodalangan. Bu maqol xalq orasida ko‘pincha ko‘chma ma‘no ifodalab, biror bir voqea hodisani o‘zining boshidan o‘tkazgan, o‘z hayotida ko‘rgan, sinagan, o‘sha vaziyatga tushgan inson biladi. Undan boshqa odam bu holatni to‘la his qila olmaydi degan ma‘no bor. Shuningdek, bu maqol ko‘pni ko‘rgan tajribali kishi ma‘nosini ham ifodalaydi.

Xulosa shuki, maqollar so‘z san‘ati mahsuli sifatida o‘z ma‘nosida, ko‘chma ma‘noda va har ikkala ma‘noda qo‘llanishi mumkin. Biron bir so‘zning maqol tarkibida kelishiga qarab uning bir nechta ma‘nolarini farqlash mumkin. Masalan, yomon so‘zi yomonlikdan tashqari xudbinlik, tekinxo‘rlik, egrilik, dushmanlik, qo‘rqoqlik, ilmsizlik, odobsizlik, manmanlik, ochko‘zlik, va hokazo ma‘nolarni ifodalaydi. Bu – maqollarda so‘zlarning ma‘no imkoniyatlari naqadar kengligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbek xalq maqollari. (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. M. Usoqulov, B. Sarimsoqov; Mas‘ul muharrir: Sh. Turdimov. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 281.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (M harfi)/ A. Madvaliev tahriri asosida. – Toshkent, 1981. – B. 569.
3. O‘zbek xalq maqollarining lingvistik asoslari [matn] B. Jo‘rayeva. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – B. 24.
4. Samadov Sanjar Ro‘Ziboy O‘G‘Li (2021). O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA DIFFERENSIAL SEMALARNING IFODALANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (4), 923-928.

**“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI
TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

5. M. Madalova (2022). MAQOLLARDA ANTONIMIK MUNOSABATLARNING IFODALANISHI. Science and innovation, 1 (B8), 1833-1835. doi: 10.5281/zenodo.7440382
6. Qaraqalpaq folklori. Qaraqalpaq ádebiyatınıń elektron kitapxanası